

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

3-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG’ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O’ZBEKISTONDA RAQS SAN’ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚҮМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Mahmudova Dilafruz Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 61-69

Мехмоналиев Улугбек Эркинжон уғли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ .70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажонова Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O’ZBEKİSTON VA XORİJIY DAVLATLARNING O’RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хайтевич</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ИҚТисодий АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёров Бобур Баходир ўғли</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomtdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i>	
О'ЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i>	
OLIY TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEХNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i>	
TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i>	
SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i>	
IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i>	
AGROKIMYO BIOCIMYO XIZMATLARI IJTIMOIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i>	
JAMIyatda ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i>	
МАHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i>	
TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизқулов Ақрам Абдурахмонович</i>	
ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИННИГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i>	
BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i>	
MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i>	
O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Аззамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'rakov Bobir Baxtiyorovich</i>	
IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i>	
NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i>	
ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i>	
MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukhan Islom qizi</i>	
SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Toшпулатова Ширин Мухиддиновна</i>	
ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i>	
SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinvich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yulliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY VA КОММУНИКАТИВ QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i>	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nusrultanqizi</i>	
TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i>	
LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i>	
SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLER VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i>	
DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i>	
FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i>	
KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i>	
MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i>	
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i>	
TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i>	
BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIK DAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i>	
UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i>	
TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаrimovich</i>	
СЎЗЛАШУВ НУТҚИННИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i>	
SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLER UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i>	
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i>	
ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi

CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) 416-428

Касимов Нодиржон Содикжонович

ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ 429-438

Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович

ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 439-445

Джалилов Сардор Шавкатович

ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ 446-453

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mirzayev Qodir Toirovich

ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 454-458

Васильченко Ольга Анатольевна

ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 459-463

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ҮҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 464-470

Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna

TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI 471-477

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

ABU ALI IBN SINO QARASHALARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI 478-482

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA 483-486

Raxmanova Dildora Abdulkamid qizi

INGLIZ TILIDA AKADEMİK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOILIYATIDAGI AHAMIYATI 487-492

Rajabiy Aziz Xasanovich

VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI 493-497

Omanov Rashid Sherqobilovich

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH 498-501

Салимов Акром Хайитович

БЎЛАЖАК ҮҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 502-507

Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i>	
СИНЭРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ	
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаева, Азаматов Абдулло Исахўжаса ўғли, Лутфуллина Румия</i>	
<i>Анваровна</i>	
ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА	
ХАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i>	
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ	
КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i>	
TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA	
AHAMİYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI	
OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i>	
JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI	
TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i>	
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER	
TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI	
RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING	
AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH	
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i>	
O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH	
METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbanovich</i>	
MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI	
VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitora Bahromovna</i>	
ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A	
SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i>	
INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV	
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI	
LANGUAGE)	604-616

<i>Tursunova Shahnoza Bekchanovna</i>	
JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'R NATISH	617-622
<i>Atoyeva Gulshoda Rabimovna</i>	
OILADAGI ZO' RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	623-628
<i>Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbanova Aziza Davlat qizi</i>	
JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI	629-635
<i>Jamolova Mokhigul Bakhtiyorovna</i>	
METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES	636-641

Jabborova Saodat Sattorovna

Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi
Email: sattorovna1975@gmail.com

MA’NAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda ma’naviy salohiyatni rivojlantirish yurt kelajagini ta’minlovchi omil ekanligi haqida fikr yuritiladi. Muallif jamiyat ma’naviy salohiyatini shakllantiruvchi omillar tizimini ilmiy manbalar asosida tahlil qilgan. Shuningdek jamiyatning ma’naviy salohiyati turli omillar ta’sirida o’zgarib turishi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: taraqqiyot strategiyasi, ma’naviy salohiyat, islohot, ma’naviy xavfsizlik, iqtisodiy salohiyat, siyosiy salohiyat, omillar, ma’naviy meros

Jabborova Saodat Sattorovna

Teacher at Bukhara State Pedagogical Institute,
Department of Social Sciences

FEATURES OF SPIRITUAL POTENTIAL AS A SOURCE OF SOCIAL DEVELOPMENT

Abstract. This article discusses the fact that the development of the spiritual potential of society is a factor ensuring the future of the country. The author, based on scientific sources, analyzed the system of factors that shape the spiritual potential of society. It is also explained that the spiritual potential of society changes under the influence of various factors.

Key words: development strategy, moral potential, reform, moral safety, economic potential, political potential, factors, moral heritage.

Джабборова Саодат Сатторовна

Преподаватель Бухарского государственного
педагогического института, кафедры “Общественные науки”

ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА КАК ИСТОЧНИК СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что развитие духовного потенциала общества является фактором, обеспечивающим будущее страны. Автор на основе научных источников проанализировал систему факторов, формирующих духовный потенциал общества. Также поясняется, что духовный потенциал общества меняется под влиянием различных факторов.

Ключевые слова: стратегия развития, моральный потенциал, реформа, моральная безопасность, экономический потенциал, политический потенциал, факторы, моральное наследие.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N31>

Kirish. Jahon ilm-fani, ilmiy va strategik tadqiqot markazlarida ma’naviy salohiyat, uning tarkibiy qismlarining ijtimoiy jarayonlarga ta’siri, inson ma’naviy olamidagi

o'zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyot xarakteriga bog'liqligi, ma'naviy salohiyatni yuksaltiruvchi omillarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishda inson potensialini yuksaltirish, mafkuraviy tarbiyaning ma'naviy salohiyatni yuksaltirish imkoniyatlarini aniqlash, inson va jamiyat ma'naviy imkoniyatlari bilan ijtimoiy jarayonlar o'rtasida aloqadorlikning nazariy masalalari ma'naviy salohiyatning xususiyatlarini tavsiflashni dolzarb etib belgilamoqda. Shuning uchun, ma'naviy salohiyat mezonlariga ta'sir etuvchi shaxs xulq-atvorining ijtimoiy manfaatlarga mosligi, ta'lim mazmuni va sifati optimalligi, mafkuraviy institutlar va madaniy-ma'rifiy tizim faoliyati, ma'naviy xavfsizlik konsepsiysi kabi omillarni, ma'naviy salohiyatni ijtimoiy taraqqiyot manbaiga aylantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish hamda undan oqilona foydalanish istiqbollari ortib bormoqda.

Ma'naviy salohiyat jamiyatning ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish, o'z a'zolari dunyoqarashi va ma'naviy olamini yuksaltirish, ko'p asrlik ma'naviy merosni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari, vositalari, zahiralari yig'indisidir. U mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda, demokratik qadriyatlар va siyosiy liberalizmni kuchaytirishda, shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson va jamiyat ma'naviy imkoniyatlari bilan ijtimoiy jarayonlar o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjudligi haqidagi falsafiy fikr yangi emas. Bu borada J.Rumi, G. Gegel, I.Kant kabi mutafakkirlarning mulohazalarini eslashning o'zi kifoya. Biroq XX asr oxiri va XXI asr boshlarida faylasuf, sotsiolog va psixologlar mazkur mavzuni faol o'rgana boshladilar. Masalan, G.Markuze o'z asarida inson ma'naviy olamidagi o'zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyot xarakteriga ta'sirini talqin etadi. E.Toffler kishilar ruhiy holatidagi evrilishlar jamiyat ma'naviy borlig'ini butkul o'zgartirayotganini ochib beradi. P.Byukenen XX asr oxiriga kelib G'arb jamiyatlaridagi ayrim tendensiyalar ma'naviy salohiyatni o'zgartirganini, bu esa taraqqiyot sur'atlarida o'z izini qoldirayotganini tahlil qiladi.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda mavzuga doir qator e'tiborga loyiq ilmiy ishlar yaratildi. Jumladan, Q. Nazarov, A. Choriyev, A. Erkayev kabi faylasuflarning tadqiqotlarida inson va jamiyat ma'naviy imkoniyatlari bilan ijtimoiy jarayonlar o'rtasida aloqadorlikning nazariy masalalari ochib berildi. A.Sharipov, F.Yuldasheva, J.Yaxshilikov va N.Muxammadiyev, N.Jo'rayev, B.To'ychiyev ilmiy ishlarida O'zbekistonda ma'naviyat salohiyatni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Har qanday jamiyatning ma'naviy imkoniyatlari va zahiralari tarixiy taraqqiyot davomida turli omillar ta'sirida shakllana boradi. Uning shakllanganligi darajasini ma'lum sistemaga solingan ijtimoiy mezonlarga asoslangan holda aniqlash mumkin. Ilmiy mulohazalar, turli fakt va argumentlar ma'naviy salohiyatni shakllantiruvchi omillar va uning shakllanganligi darajasini ko'rsatuvchi mezonlar o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjudligini namoyon etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish, mamlakat fuqarolari turmushi darajasini uzluksiz oshirib borish uchun barqaror ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarini ta'minlamoq, buning uchun esa jamiyatda mavjud bo'lgan barcha salohiyatlardan oqilona foylalanmoq darkor. Mamlakatni isloh etishga qaratilgan strategiyada bu aksioma e'tibordan chetda qolgani yo'q, albatta.

Jamiyat salohiyati xususida gapirganda, uning turli sohalarni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari, resurslari, vositalari yig'indisi nazarda tutiladi. *Jamiyat salohiyati* quyidagilardan tarkib topishi qayd qilinadi:



Ko'rinish turibdiki, jamiyat salohiyati murakkab tarkibi yuzaga ega. Uning markaziy elementi *iqtisodiy salohiyatdir*. Iqtisodiy potensial nafaqat mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlaridan, balki mavjud iqtisodiy resurslardan, shuningdek, ushbu resurslarni mamlakat ehtiyojlarini qondirishda qo'llash imkoniyatlaridan tashkil topadi [1.271]. Mavjud resurslardan foydalanish uchun mamlakat muayyan infrastrukturaga, iqtisodiy tajribaga ega bo'lishi kerak – bunda obyekt va tajribalar ham iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatning to'laqonli qo'llanilishi oqilona iqtisodiy siyosat va o'zaro manfaatli xalqaro iqtisodiy aloqalarga borib taqaladi.


Iqtisodiy salohiyat jamiyat salohiyatining yagona tarkibiy elementi emas. *Siyosiy salohiyat* davlat boshqaruvining jamiyat barqarorligi va taraqqiyotni ta'minlash hamda milliy manfaatlarni himoya qilish bilan bog'liq imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Uning miqdoriy va sifatiy xossalari quyidagilar kiradi: "mavjud siyosiy tizim, davlat hokimiyatining boshqaruv organlarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar-xodimlarning kasbiy mahorati va siyosiy madaniyati, hokimiyat vakillarining siyosiy yetukligi va irodasi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari, fuqarolik jamiyatining shakllanganligi darajasi va h.k".

Jamiyat salohiyatining yana bir elementi – *ijtimoiy salohiyat* bo'lib, u jamiyatda mavjud turli ijtimoiy va etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini, ta'lim va tibbiyot muassasalari, ijtimoiy ta'minot, sport va madaniyat maskanlari, maishiy xizmat ko'rsatish, transport va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning samarali faoliyatini ta'minlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Jamiyat salohiyatining o'ziga xos tarkibiy elementlaridan biri *ma'naviy salohiyatdir*. *Ma'naviy salohiyat* tushunchasini ta'riflash uchun avvalo "ma'naviyat" tushunchasi mazmuniga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. "Ma'naviyatga ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura, insонning odobi, axloqiy fazilatlari, badiiy, ilmiy va boshqa ijodiy izlanishlari, bu borada erishgan yutuqlari, jamiyatning asrlar osha kelayotgan

osori-atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlari, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu ijobiy ma'nodagi orzu-havasları va rejaları dahldordir". Ushbu mulohaza "ma'naviy salohiyat" definitsiyasini bayon etishda nazariy asos vazifasini o'taydi. Shunday qilib, *ma'naviy salohiyat – jamiyatning ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish, o'z a'zolari dunyoqarashi va ma'naviy olamini yuksaltirish, ko'p asrlik ma'naviy merosni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari, vositalari, zahiralari yig'indisidir.*

Jamiyat ma'naviy salohiyatini aniqlash imkonini beradigan mezonlar tizimi sifatida quyidagilarni qayd etish joiz:



Birinchidan, ma'naviy salohiyatning dastlabki mezoni *ma'naviy-ruhiy muhit* bilan bog'liq. Ma'naviy-ruhiy muhit deganda odatta jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarning xarakteri nazarda tutiladi. Bu munosabatlar o'zaro hurmat va o'zaro ishonch tamoyillariga asoslangan bo'lsa, jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhit sog'lom deya tan olinadi. Hurmat va ishonch kabi axloqiy normalarning tanqisligi mazkur muhitning nosog'lomligidan dalolat beradi. Bir qarashda ma'naviy salohiyat bilan muhit o'rtasida biror bir aloqadorlik ko'zga tashlanmaydi. Aslida esa bunday emas. Ma'naviy salohiyatni iqtidorli kishilar vujudga keltiradilar. Har qanday iqtidor, qobiliyat rivoji esa dasturilavvalda mavjud muhitga borib taqaladi. Chunki iqtidor va qobiliyatni shakllantirishda biofiziologik omillar (jismonyi sog'lomlik, miya faoliyatidagi bir maromdag'i o'zgarishlar, tabiiy jarayonlar), ijtimoiy muhit (ziyolilar, hayotiy tajribaga ega bo'lgan insonlar, mutaxassislar), intuitiv faoliyat va ma'naviy-ruhiy poklik o'ziga xos o'rincutadi.

Shaxs mislsiz iqtidorga ega bo'lishi mumkin, biroq uning rivoj topishi uchun maqbul muhit – kishilarning pozitiv munosabati, hurmati va ishonchi taqozo qilinadi. Muhit nafaqat iqtidorning shakllanishi va rivojlanishiga, balki uning xarakteri va ijtimoiy salmog'iga ham zamin hozirlaydi. Chunki aynan muhit shaxs qobiliyatini va iqtidorini u yoki bu maqsad sari yo'naltiradi: sog'lom muhit uni ijtimoiy manfaatlarga bo'yundirsa, nomaqbul muhit unga g'ayriijtimoiy tus beradi. Xuddi shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyev: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak" [2], - deb ta'kidlagan edi. Binobarin, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit hukm surgan yurtda ma'naviy salohiyat uzlusiz takomillashadi, nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit uning rivojiga imkon qoldirmaydi, to'sqinlik qiladi. Shu sababga ko'ra, jamiyat ma'naviy salohiyati avvalo, undagi ma'naviy-ruhiy muhit xarakteriga qarab aniqlanadi.

Ikkinchidan, ma'naviy salohiyatning muhim mezonlaridan biri *milliy g'oya va mafkura* bilan bog'liq. Milliy g'oya, "mafcura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsad sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan". Jamiyat a'zolari yagona maqsad – milliy g'oya atrofida birlashmas, uni ro'yobga chiqarishga o'z hissasini qo'shmas ekan, ijtimoiy ong shakllari rivoji, milliy-ma'naviy tajribalar yuksalishi, ma'naviy xavfsizlikning ta'minlanishi xususida gap ham bo'lishi mumkin emas. Qaysi mamlakatda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, uni fuqarolar ongiga singdirish masalalariga alohida e'tibor berilgan bo'lsa, o'sha yurtda ma'naviy salohiyatning jadal rivojlanishi kuzatilmoida.

Uchinchidan, jamiyat ma'naviy salohiyatini *ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kishilar soniga* qarab ham aniqlasa bo'ladi. Tafakkur yuritish jamiyatning har qanday a'zosiga xos qobiliyatlardan biridir, albatta. Biroq, bizga ma'lumki, tafakkur shakllari o'zining turlitumanligi bilan tavsiflanadi. Standartlashgan, muayyan qoliplar bilan cheklangan tafakkur sohibi yangi bilim va g'oyalarning vujudga kelishiga xizmat qilmaydi, shu sababdan uni ma'naviy salohiyatni shakllantiruvchi manba sifatida baholab bo'lmaydi. Bundan farqli o'laroq, ijodiy tafakkur yuritishga qodir kishilar turli masalalarga nostandard yondashishga odatlanganlari tufayli aksariyat hollarda yangi bilim va g'oyalarning, ixtiro va kashfiyotlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'ladilar. Masalan Abu Ja'far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ijodiy tafakkuri o'nli sanoq sistemasining paydo bo'lishiga [3], Ahmad al-Farg'oniyning ijodiy tafakkuri Nil daryosidagi suv sathini o'lchaydigan inshootning barpo qilinishiga, Abu Rayhon Beruniyning ijodiy tafakkuri Yerning kattaligini o'lhash usulining shakllanishiga olib keldi. Shu tariqa ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kishilar millat ma'naviy mulki salmog'ini oshirishga, ma'naviy salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladilar. Bundan tashqari, ijodkor kishilar jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantiruvchi qudrat sanaladilar: ijodkorlar ko'p bo'lgan jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit hukm suradi. Shuni nazarda tutgan holda, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev mamlakat ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvda: "Olimlik Olloh nurini solgan ulug' bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur, ziyo taraladi. Olimlarning suhabatidan inson o'ziga beqiyos ma'naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi", - degan edi. Xuddi shuning uchun bunday kishilarning o'zini jamiyat ma'naviy salohiyatidan dalolat beruvchi mezonlardan biri sifatida e'tirof etmoq darkor.

To'rtinchidan, xuddi shunday, *ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlari soni* ham jamiyat ma'naviy salohiyatidan darak beradi. Aslida bularning asosiy funksiyalaridan biri ham jamiyat a'zolarini ma'naviy yetuklikka undash bilan bog'liq.

Jamiyatda adabiyot va san'at asarlari naqadar ko'p bo'lsa, uning a'zolari madaniy saviyasini yuksaltirish imkoniyatlari ham shu qadar katta bo'ladi. Shuning uchun ham adabiyot

va san'at jamiyat ma'naviy salohiyatini belgilovchi mezonlardan biridir. Biroq, ta'kidlab o'tmoq darkorki, har qanday adabiyot va san'at asari ham bunday mezon vazifasini o'tay olmaydi. Mazmunan sayoz, asosiy g'oyadan mosuvo, syujeti bachkana asar ma'naviy salohiyat mezoni bo'lishi mumkin emas. Ularning miqdori ko'paygani bilan jamiyat ma'naviy jihatdan yuksalib qolmaydi. Insoniyatni asrlar davomida o'nga toldirib kelgan abadiy muammolarga bag'ishlangan, undagi insoniylikni ulug'laydigan, ruhiy kamolotga yetaklaydigan asarlargina ma'naviy salohiyat mezoni bo'lishi mumkin. Shuning uchun Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Shu maqsadda ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan dasturlar qabul qilamiz. Ijodkor ziyorilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni ma'naviy-ma'rifiy sohadagi siyosatimizning muhim yo'naliishlari deb bilamiz. Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshiriladi. Milliy kino va kutubxonalar tizimini yanada rivojlantiramiz. Mamlakatimiz hududlarining madaniy yuksalish, xalq hunarmandchiligin qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq va samarali chora-tadbirlar belgilanadi", - deya qayd alohida qayd etadi.

Beshinchidan, jamiyat a'zolarining ajdodlar tomonidan asrlar davomida to'plangan *ma'naviy merosga munosabati* ham ma'naviy salohiyat mezoni hisoblanadi. Ma'naviy meros madaniy merosning ajralmas qismi bo'lib, ajdodlar yaratgan falsafiy, axloqiy, diniy, huquqiy va siyosiy qarashlar, asarlar, xulq-atvor normalari, qadriyatlar, ideallar va shu kabilardan tarkib topadi. U nafaqat millat vakillarining mentaliteti va turmush tarzini, balki kelajakdagi maqsad-muddaolari xarakterini ham belgilab beradi. Ma'naviy meros asrab-avaylangan jamiyatda tarixiy taraqqiyot vorisiyligi ta'minlanadi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Umuman, har qanday ijtimoiy muvaffaqiyat va yutuqning zamirida ma'naviy meros yotadi. Masalan, ma'naviy merosning tarkibiy qismi bo'lgan va avlodlar ehtiyojlari asosida vujudga kelgan odatlar vaqt o'tishi bilan "turmushning tarkibiy qismiga aylanib, taraqqiy etadi va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi". Shuning uchun ham mamlakat Prezidenti: "Buyuk ajdodlarimizning bebaho ijodiy merosini ko'z qorachig'idek avaylash va o'rganish har birimizning muqaddas burchimiz, kelgusi avlodlar oldidagi majburiyatimizdir", - deb ta'kidlagan edi.

Oltinchidan, jamiyat ma'naviy salohiyatini ko'rsatuvchi yana bir mezon *uning ma'naviy xavfsizligi darajasidir*. Ilmiy adabiyotlar, ensiklopediya va lug'atlarda ko'proq "mafkuraviy xavfsizlik" tushunchasi uchraydi. Bunda "shaxs, millat, jamiyat, davlatning xil-maxil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning bug'zunchilik ta'siridan himoyalanganlik darajasini tavsiflovchi tushuncha" nazarda tutiladi. Biroq "ma'naviy xavfsizlik" tushunchasi "mafkuraviy xavfsizlik" tushunchasiga qaraganda mazmunan boyroq. Bunda jamiyatning nafaqat turli buzg'unchilik g'oya va mafkuralaridan, balki destruktiv bilimlar, ijtimoiy illatlar, aksilqadriyatlar, g'ayriinsoniy xulq-atvor normalari, jamiyat manfaatlariga zid ideallardan ham muhofaza qilinganligi me'yori tushuniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ma'naviy salohiyat mezonlari o'zining turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Yuqorida tilga olingan mezonlarga javob beradigan ma'naviy salohiyat jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Eng muhimi, u ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi, uning sur'atlarini jadallashtiruvchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.// <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 29.12.2020
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – Б.275-276
3. Эркаев А. Маънавият ва тараққиёт. -Тошкент: “Маънавият”, 2009.- Б. 271
4. Алиқулов Ҳ. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. 1-жилд. -Тошкент; “Ношир”, 2013. -Б. 77.
5. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1- жилд. - Тошкент: Ўзб.файл.миллий жам. нашр., 2019.- Б.737.
6. Jabborova S.S. The Role of Spirituality in the Education of a Perfect Generation. // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. - Volume: 04. Issue: 05. May, 2023. – PP.296-299. (Journal indexed by Academic Resource Index (ResearchBib))
7. Jabborova S.S. Jamiyat ma'naviy salohiyatiga xavf solayotgan omillar va ularning tahlili. // Falsafa va hayot. -Toshkent, 2023, - №SI-2. – B.105-112. (09.00.00; №25)
8. Jabborova S.S. Ma'naviy salohiyat - ijtimoiy taraqqiyot manbayi. // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. -№8. – B.148-150. (09.00.00; №17
9. Jabborova S.S. Jamiyatda ma'naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2023. -№2. – B.186-190. (09.00.00; №22)
10. Jabborova S.S. O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli. // FarDU. Ilmiy xabarlar – Fargona, 2023. - №4. – B.64-68. (09.00.00; №31)
11. Jabborova S.S. Piritual competence - a source of social development. // 2nd International Ege Congress on Social Sciences & Humanities. - Ege University, Izmir, Turkiye. 2023. – PP.557-560.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).